

30-Sentabr, 2024-Yil

DAVLAT ULUSHI ISHTIROKIDAGI JAMIYATLARDA MHXS (MOLIYAVIY
HISOBOTLARNI XALKARO STANDARTLAR) ASOSIDA BUXGALTERIYA
HISOBINI YURITISH VA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH TARTIBI

Fayziyev Mehriddin Rajabovich

Bank-moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13774322>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasidagi Davlat ulushi ishtirokidagi jamiyatlarda moliyaviy hisobotlarning tuzilishi va ularning axborot ta'minoti, moliyaviy holatini aniqlash va foydalanilmagan rezervlar tahlili, asosiy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar tahlili masalalari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy hisobot, balans, hisob tizimi, xarajat, daromad, moliyaviy hisobot tahlili, daromad va xarajatlar tahlili, hisoblash usuli.

THE PROCEDURE OF ACCOUNTING AND PREPARATION OF FINANCIAL
STATEMENTS IN COMPANIES WITH STATE PARTICIPATION ON THE BASIS OF
IFRS (INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS)

Abstract. This article describes in detail the structure of financial reports and their information provision in companies with state participation in the Republic of Uzbekistan, the determination of financial status and the analysis of unused reserves, the analysis of income and expenses from the main activity.

Key words: financial statement, balance sheet, accounting system, cost, income, financial statement analysis, income and expense analysis, calculation method.

ПОРЯДОК УЧЕТА И ПОДГОТОВКИ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ В
КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ НА ОСНОВЕ МСФО
(МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ)

Аннотация. В данной статье подробно описана структура финансовой отчетности и ее информационное обеспечение в компаниях с государственным участием в Республике Узбекистан, определение финансового состояния и анализ неиспользованных резервов, анализ доходов и расходов от основной деятельности.

Ключевые слова: финансовый отчет, баланс, система бухгалтерского учета, себестоимость, доходы, анализ финансовой отчетности, анализ доходов и расходов, метод расчета.

30-Sentabr, 2024-Yil

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijasi oliy ta'lim tizimini o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash tizimiga o'tishi natijasida universitet va institutlar tomonidan mablag' ishlab topish va ulardan maqsadli hamda samarali foydalanish, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish, shu jumladan buxgalteriya hisobi ko'rsatkichlarini to'g'ri va asosli ekanligini tekshirish, hisobot ko'rsatkichlarini boshqa axborotlar bilan raqamlashtirilgan holatda tekshirishni amalga oshirish muhim masala hisoblanadi. Shu sababli oliy ta'lim tizimining xususiyatlarini inobatga olish, ushbu tizimda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritish, natijada moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar darajasida taqdim etish muhim hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston Respublikasiga kirib kelishi natijasida hisob tizimini optimal tashkil etish imkoniyati yaratildi va uning ma'lumotlarining shaffofligi yanada oshdi.

O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Byudjet muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi qarori, "Byudjet tashkilotlari va byudjetdan mablag' oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom, byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining tashkiliy asoslariga doir ko'plab nizom va yo'riqnomalar ishlab chiqildi.

Davlat ulushi ishtirokidagi jamiyatlarda muhim masala moliyaviy hisobotlar tarkibi va uning axborot ta'minotini tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu sohada buxgalteriya hisobini tashkil qilish, ya'ni byudjet hisobining tashkiliy masalalarini ishlab chiqish, buxgalteriya hisobini yuritish shakli, tashkiliy tamoyillari, usullari, asosiy masala moliyaviy hisobotlarini belgilangan normativ hujjatlarga asosan ishlab chiqish, uning axborot ta'minotini tahlil qilish, ularda moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim qilish xususiyatlarini inobatga olgan holda axborot ta'minoti tahlilini amalga oshirish lozim.

Ushbu masalada dunyo hamjamiyatida inobatga olinadigan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, shu jumladan davlat sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish alohida masala hisoblanadi. Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli qarorida alohida "Davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarining MHXS asosida e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlari shaffofligi va sifatini oshirish bo'yicha choralar ko'rish, shuningdek, mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Moliya vazirligiga ma'lumot taqdim etish"[2] masalasi belgilangan.

Demak, oliy o'quv yurtlarida buxgalteriya hisobini yuritish jarayonida davlat sektorida MHXS asosida tashkil etish masalasining yechimini topish zarur. Ushbu masalada O'zbekiston

30-Sentabr, 2024-Yil

Respublikasida davlat sektorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida milliy standartlar ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda.

Oliy o'quv yurtlarida moliyaviy hisobotlarning axborot ta'minotini tahlil qilish jarayonida ushbu sohaga tegishli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining me'yoriy hujjatlarida belgilangan yagona uslubiyat, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetalarining ijrosi, buxgalteriya hisobining ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu maqsadda oliy o'quv yurtlarining katta-kichikligi, xarajatlar smetalarining hajmi, operatsiyalar soni va ma'lumotlarning ishlash vositalaridan foydalanilishiga qarab (O'zASBO) hisobi asosida analitik daftar, boshjurnal va boshqalar qo'llaniladi[3].

Chet mamlakatlarda oliy ta'lim sohasida byudjet hisobini tashkil qilish masalasida Rossiyada turlicha fikrlar mavjud. Shu jumladan, byudjet daromadlari va xarajatlari buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha rossiyalik iqtisodchiolim Vorobyeva I. P. tomonidan quyidagicha fikr bildirilgan: "Oliy ta'lim sohasidagi byudjet hisobini yuritishda tizimga daromad keltiruvchi faoliyatdan olingan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari tadqiq etilgan.

Bunda byudjet tashkilotlarida daromad keltiruvchi faoliyatdan olinadigan daromadlarni alohida buxgalteriya hisobida aks ettirish mezonlari, mazkur daromadlarning tasniflanishi, buxgalteriya hisobida tan olish uchun asos bo'ladigan hujjatlar, daromad summasi, sanasi yetarli darajada huquqiy jihatdan tartibga solinmaganligi sabab-li ushbu masalani yanada batafsil yoritish lozim[4].

Ushbu masala yanada rivojlantirilib, S.I.Korenkova ilmiy tadqiqotlarida byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish jarayonlarini takomillashtirishda hisob siyosatini ishlab chiqish o'ta muhim masalalardan biri hisoblanadi[5]. Yuqoridagilar asosi-da ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublika-si davlat sektorida byudjet hisobi va hisobotini takomillashtirish byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu masalada amalga oshirilgan islohotlar natijasida Xalqaro amaliyot tajribasi asosida byudjet hisobini isloh etishda daromadlarni tan olish jarayonida ikki usuldan birini tanlab, shu asosda amalga oshirilishi lozim: hisoblash usuli va kassa usuli. Ushbu usullardan foydalanish va xalqaro standartar talabiga ko'ra ko'proq hisoblash usuliga o'tilishi asosiy yo'nalish sifatida qaraldi. Davlat sektorida hisoblash usuliga asoslangan standartlarning joriy qilinishi soha olimlarining ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu masalada xorijlik iqtisodchi-olimler fikrini tahlil qilsak, ushbu masalada Kristensen M. va Parker L. tomonidan chet ellik kompaniyalar tomonidan byudjet hisobida hisoblash usuli va shu asosda standartlarning joriy qilinishi masalalari yoritilgan. Shu jumladan, byudjet tizimidagi

30-Sentabr, 2024-Yil

universitetlarning buxgalteriya hisobini yuritishda xalqaro amaliyot tajriba-sidan kelib chiqib, moliyaviy hisobotning xal-qaro standartlarida belgilangan hisoblash usulidan foydalanish va ushbu usulning xalqa-ro standartlar talabiga mosligi bo'yicha fikr bildirganligini ko'rishimiz mumkin[6].

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021.- 458 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli qarori. //Lex.uz.
3. To'rayeva M.A. Global pandemiya sharoitida byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi va nazoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari (ta'lim muassasalari misolida). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2020-yil 60-64-betlar. Raximova G.M. MHXS globallasuvi: standartlashtirishning jahon tajribasini tahlil qilish (birinchi turkum). //Moliya va bank ishi. elektron ilmiy jurnali. 5-son. Sentyabr-oktyabr, 2020.39-43betlar.
4. Buxgalterskiy uchët v byudjetnyx uchrejdëniyax: Uchebnoye posobiye. /I.P. Vorobyeva, A.L. Spesivseva, G.A. Barysheva. – Tomsk: Izd-vo TPU, 2012. – 252 s.
5. Korenkova S.I. Byudjetnyy uchët i otchetnost. Uchebnoye posobiye dlya vuzov. - M.: Yurayt, 2018. -457 s. S.45-48.
6. Christensen M., Parker L. Using Ideas to Advance Professions: Public Sector Accrual Accounting. //Financial Accountability and Management. 2010. Vol. 26. №3. P. 246–266.
7. Mexmanov S.U. Davlat sektorida buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari asosida byudjet hisobini isloh etish yo'nalishlari. //Iqtisod va moliya, 2015, №4. 73-77 b.
8. Mejdunarodnyye standarty buxgalterskogo ucheta dlya gosudarstvennogo sektora (MSBUGS). Pervyy tom. –T., 2008. 305s. S. 50-51.
9. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi" to'g'risidagi qonun. //Lex.uz.
10. To'rayeva M.A. Global pandemiya sharoitida byudjet tashkilotlarida byudjet hisobi va nazoratini takomillashtirishning dolzarb masalalari (ta'lim muassasalari misolida). "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 5, sentabr-oktabr, 2020. 60-64 betlar.